

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, I-QISM

Google
scholar

RePEc
RESEARCH PAPERS
IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
I-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INVESTITSION FAOLIYATNI RAG'BATLANTIRISH VA BAHOLASHNING XORIJIY TAJRIBASI	34
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna BREND POZITSİYALASH STRATEGİYASINI ISHLAB CHIQUISHDA BOZOR TADQIQOTLARI METODIKASI	41
Jumayeva Zulfiya Qayumovna GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIKNING O'ZBEKISTON MILLIY VALYUTASI BARQARORLIGIGA TA'SIRI	46
Davlatova Nilufar Avazovna KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGI: MANZILLI SAMARADORLIK INDEKSI (MSI) ASOSIDA BANDLIK DASTURLARINI BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	50
Eshmurodov Adhamjon Rahmonjonovich АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ ООО «SAM PULSAR DISTRIBUTORS»	61
Мусаева Шоира Азимовна KICHIK BIZNESDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI	68
Tukhtasinova Intizorkhon Sherzod qizi GLOBALLASHUV DAVRIDA JAHON IQTISODIYOTIDAGI O'ZGARISHLARNING YANGI O'ZBEKISTONGA TA'SIRI	73
Jahongir Nurulloevich Jurayev YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGI	77
Nasulloeva Oydiyoy Saidovna ПРИВЛЕЧЕНИЕ МОЛОДЁЖИ К ЭКСПОРТУ ЦИФРОВЫХ УСЛУГ: МЕХАНИЗМ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ	82
Палвонова Севара Бахромовна MINTAQA IQTISODIYOTINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHDA IT-PARKLARNING NAZARIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI	94
Sultanova Zuxra Jaksilikovna INSON KAPITALINING KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI	99
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich Dilmurodov Komiljon Ahmad o'g'li RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI MONITORING QILISHNING INTEGRATSIYALASHGAN UZEMS MODELI	103
Bobobekov Ergash Abdumalikovich AUDIT JARAYONIDA MOLIYAVIY FIRIBGARLIK BELGILARINI ANIQLASHNING TAHLILIY TARTIB-TAOMILLARINI TAKOMILLASHTIRISH	108
Xusanov Shuxrat Burxanovich FROM AUTOMATION TO STANDARDIZATION: OPERATIONS MANAGEMENT CHALLENGES IN UZBEKISTAN'S HOSPITALITY SECTOR	115
Asal Kadirova СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСТИНИЧНЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ НА ОСНОВЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	125
Нигматова Сугдиена Жалолiddин кизи	



SANOAT 4.0 TEXNOLOGIYALARINING RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHI VA UZOQ MUDDATLI IQTISODIY O'SISHDAGI ROLI	131
Komilova Dilafruz Rustam qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY AHAMIYATI	137
Samiyeva Gulnoza Toxirovna	
O'taganov Fazliddin Isroil o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СТРАХОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТУРИСТСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ	142
Эргашева Файёза Боходир кизи	
МЕХАНИЗМЫ ГАРМОНИЗАЦИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО УЧЕТА И ОТЧЕТНОСТИ В МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКЕ	146
Жиенбаева Айсанем Оразбаевна	
XORAZM VILOYATIDA SHOLI YETISHTIRISHNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA UNING RESPUBLIKA SHOLICHILIGIDAGI O'RNI	154
Matrasulova Feruza Baxodirovna	
YIRIK KORXONALARDA SOLIQ NAZORATINING HUQUQIY ASOSLARI VA HORIIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	159
Qo'shaqov Asrorjon Nematjonovich	
ФОРМИРОВАНИЕ РЕЗУЛЬТАТИВНОЙ СТРУКТУРЫ БЮДЖЕТНЫХ ПРОГРАММ В СФЕРЕ СТРОИТЕЛЬСТВА И ЖИЛИЩНО-КОММУНАЛЬНОГО ХОЗЯЙСТВА: МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	166
Мирзаева Дилдора Иномовна	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI VA KREDIT RISKLARI HOLATINI BAHOLASH (DAVLAT BANKLARI MISOLIDA)	174
Eshboyev Shahobiddin Anorqul o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	183
Aslanova Dilnoza Fatilloevna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TASHKILOT BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: NAZARIY YONDASHUVLAR VA BAHOLASH METODOLOGIYASI	187
Raxmonova Nilufar Umedovna	
HUDUDIIY IQTISODIYOT TARKIBIIY O'ZGARISHLARINI SHAKLLANTIRISHDA SANOATLASHUV, XIZMATLAR SEKTORI VA INVESTITSİYALARINING ROLI	196
Raxmonqulova Nafisa Olimjon qizi	
SOLIQ BAZASI TUSHUNCHASI, UNING MAZMUNI VA IQTISODIY MOHIYATI	201
Gadoyeva Nilufar Erkinovna	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA KORXONALARNING MOLIVAVIY MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	208
Atadjanova Sevinch Qurbonbayevna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON TIJORAT SUBYEKTLARINI SOLIQA TORTISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	214
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION MARKETINGNI QO'LLASH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	222
I.R.Sabirjanova	
OPPORTUNITIES FOR UTILIZING TAX INCENTIVES GRANTED TO SMALL AND MEDIUM-SIZED ENTERPRISES FOR THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THEREGIONAL ECONOMY	228
Palvanbayev Umidbek Uktam o'g'li	
MINTAQAVIY TURISTIK KLASTERLARNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: IQTISODIY SAMARADORLIK MODELII	233
Kazokova Dilnoza Bobirovna	
KORPORATIV BOSHQARUVNING QURILISH KORXONALARI IQTISODIY SAMARADORLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY YONDASHUVLARI	238
G'iyosov Ilxom Karimovich	



O'ZBEKISTONDA KAPITAL BOZORINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI TAHLILI	246
Xaitova Gulmira Matsalayevna	
SUV TEJOVCHI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR RIVOJLANISHINING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI	253
Sangirova Umida Ravshanovna	
МЕТОДЫ СИСТЕМ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ И ПЛАНИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	259
Н. М. Эргашева	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI.....	265
Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich	
Ishbekova Lobar Yunusxonovna	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASHDA PUL OQIMLARINI BOSHQARISHNING O'RNI.....	271
Ishbekova Lobar Yunusxonovna	
ТЕНДЕНЦИИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ТАДЖИКИСТАНА ЗА 35 ЛЕТ ГОСУДАРСТВЕННОЙ НЕЗАВИСИМОСТИ	276
Икромни Нуриддин Киём	
Раҳматзода Далер Талбак	
YANGI O'ZBEKISTONDA GILAMCHILIK SANOATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI VA ISTIQBOLLARI	283
Farog'at Xo'jabekova	
MINTAQADA AGROTURIZMNI XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA RIVOJLANTIRISH: XALQARO MODELLAR VA O'ZBEKISTON UCHUN INNOVATSION MEXANIZMLAR.....	288
Aliqulov Humoyun Tohir o'g'li	
KICHIK BIZNESDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-BOSHQARUV MEXANIZMI.....	294
Kabilova Shahnoza Jurayevna	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI VA MOBIL ILOVALAR YORDAMIDA CHAKANA BANK XIZMATLARINI KO'RSATISH	301
Parpiboyeva Lobar Abdikomilovna	
TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV MIJOZLARNI MOLIYALASHTIRISHNING TAHLILI	308
Abduraxmanov Farrux Talipjanovich	



TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV MIJOZLARNI MOLIYALASHTIRISHNING TAHLILI

Abduraxmanov Farrux Talipjanovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada davlat ulushi yuqori bo'lgan uchta tijorat banki – “Asakabank”, “Mikrokreditbank” va “Turonbank” misolida korporativ mijozlarni moliyalashtirish amaliyoti tahlil qilingan. Tadqiqot 20 ta tijorat bankining 2020–2024-yillardagi ko'rsatkichlaridan tuzilgan panel ma'lumotlar bazasiga asoslanadi. Tahlil natijalari uchala bankda ham korporativ kreditlash hajmining o'sishi samaradorlikning pasayishi bilan kechayotganini ko'rsatdi: korporativ portfel rentabelligi “Asakabank”da 1,16 foizdan 0,14 foizga, “Turonbank”da 1,96 foizdan 0,22 foizga tushgan, “Mikrokreditbank”da esa 2024-yilda manfiy qiymatga o'tgan. Shu davrda 20 ta bank bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 2,61 foizni tashkil etgan. Panel regressiya tahlili korporativ portfel rentabelligiga korporativ kreditlarning yuridik shaxslar depozitlari bilan qoplanishi ijobiy, kredit portfelida korporativ segment ulushining yuqoriligi esa salbiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi; boshqa omillar nazorat qilingan holda davlat banklari uchun rentabellik o'rtacha 9,5 foiz punktga past bo'lib chiqdi.

Kalit so'zlar: korporativ mijozlar, korporativ kreditlash, davlat banklari, resurs bazasi, depozitlar bilan qoplanish, portfel konsentratsiyasi, muammoli kreditlar, samaradorlik, panel tahlil.

Abstract: The article analyses the practice of financing corporate clients in three state-owned commercial banks: Asakabank, Mikrokreditbank and Turonbank. The study is based on a panel dataset covering 20 commercial banks over 2020-2024. The results show that in all three banks the growth of corporate lending has been accompanied by a decline in efficiency: the return on the corporate portfolio fell from 1.16 to 0.14 per cent in Asakabank and from 1.96 to 0.22 per cent in Turonbank, while Mikrokreditbank moved into negative territory in 2024. Over the same period the average for the 20 banks stood at 2.61 per cent. Panel regression analysis confirms that the coverage of corporate loans by corporate deposits has a positive effect on the return of the corporate portfolio, whereas a high share of the corporate segment in the loan portfolio has a negative effect; controlling for other factors, profitability in state-owned banks is on average 9.5 percentage points lower.

Keywords: corporate clients, corporate lending, state-owned banks, funding base, deposit coverage, portfolio concentration, non-performing loans, efficiency, panel analysis.

Аннотация: В статье проанализирована практика финансирования корпоративных клиентов на примере трёх коммерческих банков с государственной долей - «Асакабанк», «Микрокредитбанк» и «Туронбанк». Исследование основано на панельной базе данных 20 коммерческих банков за 2020-2024 годы. Результаты показали, что во всех трёх банках рост объёмов корпоративного кредитования сопровождается снижением эффективности: рентабельность корпоративного портфеля снизилась с 1,16 до 0,14 процента в «Асакабанке» и с 1,96 до 0,22 процента в «Туронбанке», а «Микрокредитбанк» в 2024 году вышел в отрицательную зону. За тот же период средний показатель по 20 банкам составил 2,61 процента. Панельный регрессионный анализ подтвердил, что покрытие корпоративных кредитов депозитами юридических лиц оказывает положительное влияние на рентабельность корпоративного портфеля, а высокая доля корпоративного сегмента в кредитном портфеле - отрицательное; при контроле прочих факторов рентабельность государственных банков в среднем ниже на 9,5 процентного пункта.

Ключевые слова: корпоративные клиенты, корпоративное кредитование, государственные банки, ресурсная база, покрытие депозитами, концентрация портфеля, проблемные кредиты, эффективность, панельный анализ.

KIRISH

Korporativ mijozlarni moliyalashtirish O'zbekiston bank tizimining asosiy faoliyat yo'nalishi bo'lib qolmoqda: 2024-yil yakunida tadqiqot namunasiga kiritilgan 20 ta bank bo'yicha yuridik shaxslarga berilgan kreditlar hajmi 337,1 trln so'mni yoki jami kredit portfelining 67,9 foizini tashkil etdi. Ushbu segmentda davlat ulushi yuqori



bo'lgan banklarning mavqei sezilarli: ular sanoat korxonalarini, qishloq xo'jaligi va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishning asosiy manbayi hisoblanadi.

Shu bilan birga, so'nggi yillarda davlat banklarida korporativ moliyalashtirishning samaradorligi bo'yicha jiddiy savollar yuzaga kelmoqda. Bank tizimini isloh qilish strategiyasida davlat banklarini transformatsiya qilish, ularni bozor tamoyillari asosida faoliyat yuritishga o'tkazish va xususiylashtirishga tayyorlash vazifasi belgilangan. Bu vazifani hal etish uchun korporativ moliyalashtirish amaliyotining hozirgi holatini – uning hajmini, resurs ta'minotini, portfel tuzilishini va daromadlilik darajasini – obyektiv baholash zarur.

Tadqiqot obyekti sifatida davlat ulushi yuqori bo'lgan uchta bank – “Asakabank”, “Mikrokreditbank” va “Turonbank” tanlandi. Ushbu banklar hajmi va biznes modeli jihatidan bir-biridan farq qiladi: “Asakabank” yirik sanoat korxonalarini moliyalashtirishga ixtisoslashgan bo'lib, aktivlari bo'yicha mamlakatda to'rtinchi o'rinni egallaydi; “Mikrokreditbank” ko'p sonli kichik korporativ mijozlar bilan ishlaydi; “Turonbank” esa o'rta hajmdagi korxonalarni kreditlashga yo'naltirilgan. Bunday tanlov korporativ moliyalashtirishning turli modellarini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Banklarning korporativ mijozlarni moliyalashtirish faoliyati moliyaviy vositachilik nazariyasining markaziy masalalaridan biridir. D. Diamond banklarning delegatsiyalangan monitoring vazifasini asoslab, bank kreditining boshqa moliyalashtirish vositalaridan farqini axborot ishlab chiqarish qobiliyati bilan izohladi. E. Fama bank kreditlarining “noyob” xususiyatini ta'kidlab, ular ochiq bozor vositalari bilan to'liq almashtirilmashligini ko'rsatdi. M. Petersen va R. Rajan bank va korxona o'rtasidagi uzoq muddatli munosabatlar (relationship lending) kredit resurslariga kirishni osonlashtirishini empirik asosladilar.

Resurs bazasining tarkibi bilan bog'liq tadqiqotlarda A. Demircuc-Kunt va H. Huizinga depozit bazasi ulushi yuqori banklarning barqarorroq va rentabelroq ekanligini ko'rsatdilar. R. Xuang va L. Ratnovski ulgurji moliyalashtirishga tayanishning salbiy tomonlarini, B. Kreyg va V. Dinger esa depozit bazasining kengayishi resurs qiymatini pasaytirishini asosladilar. Bu natijalar korporativ kreditlarning yuridik shaxslar depozitlari bilan qoplanishi ko'rsatkichini samaradorlik omili sifatida qarashga asos beradi.

Kredit portfelining konsentratsiyasi masalasida adabiyotda ikki qarama-qarshi yondashuv mavjud. Portfel nazariyasi diversifikatsiyaning foydasini ta'kidlasa, A. Uinton ixtisoslashuv monitoring sifatini oshirishi mumkinligini ko'rsatadi. V. Akharya, I. Xasan va A. Saunders italyan banklari misolida haddan tashqari konsentratsiya ham, haddan tashqari diversifikatsiya ham natijaviylikni pasaytirishini aniqladilar.

Davlat banklarining samaradorligi bo'yicha tadqiqotlar alohida yo'nalishni tashkil etadi. R. La Porta, F. Lopes-de-Silanes va A. Shleyfer davlat mulkidagi banklar ulushi yuqori mamlakatlarda moliyaviy rivojlanish sur'ati va iqtisodiy o'sish pastroq bo'lishini ko'rsatdilar. A. Miqel-Nishimura va Ye. Yafeh rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat banklarining rentabelligi xususiy banklarnikidan past ekanligini asosladilar. J. Sapienza siyosiy omillarning davlat banklari kredit qarorlariga ta'sirini, A. Dinch esa saylov davrlarida davlat banklarining kreditlash siyosati o'zgarishini empirik tasdiqladi. Ayni paytda R. Kall va uning hammualliflari inqiroz davrlarida davlat banklari kreditlashning kontrtsiklik roli o'ynashini ko'rsatdilar, ya'ni ularning faoliyatini faqat rentabellik mezonini bilan baholash to'liq bo'lmaydi.

Mahalliy adabiyotda korporativ kreditlash asosan hajm va tarmoq tuzilishi nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Korporativ moliyalashtirishning rentabelligi bilan resurs bazasi tarkibi va portfel konsentratsiyasi o'rtasidagi bog'liqlik, ayniqsa davlat banklari kesimida, empirik jihatdan kam o'rganilgan. Mazkur maqola shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning axborot bazasini “Ahbor-Reyting” reyting agentligining bank sektori bo'yicha analitik sharhlarida e'lon qilingan reytinglar tashkil etadi. Aktivlar, o'z kapitali, kredit portfeli, yuridik shaxslarga berilgan kreditlar, yuridik shaxslar depozitlari, sof foyda, muammoli kreditlar (NPL), kredit yo'qotishlari zaxiralari, milliy va xorijiy valyutadagi kreditlar hamda yuridik shaxs mijozlar soni bo'yicha ma'lumotlar 20 ta tijorat banki uchun 2020–2024-yillar kesimida yig'ildi. Natijada 100 ta kuzatuvdan iborat balanslashgan panel shakllantirildi; tahlil markazida “Asakabank”, “Mikrokreditbank” va “Turonbank” turadi, qolgan banklar qiyosiy baza vazifasini bajaradi.

Korporativ moliyalashtirishni tahlil qilish uchun quyidagi ko'rsatkichlar tizimi qo'llanildi. Hajm va tuzilma bloki: korporativ kreditlar hajmi (CORP), ularning kredit portfelidagi ulushi ($CORPSH = CORP/LOAN$) va aktivlardagi ulushi ($CORP/A$). Resurs ta'minoti bloki: yuridik shaxslar depozitlarining korporativ kreditlarni qoplash koeffitsiyenti ($COV = CDEP/CORP$). Samaradorlik bloki: korporativ portfel rentabelligi ($RCORP = NP/$



CORP), aktivlar rentabelligi (ROA) va o'z kapitali rentabelligi (ROE). Risk bloki: muammoli kreditlar ulushi (NPL/LOAN), zaxiralarning portfeldagi ulushi, zaxiralarning muammoli kreditlarni qoplash darajasi va xorijiy valyutadagi kreditlar ulushi.

Samaradorlik omillarini aniqlash uchun quyidagi regressiya tenglamasi eng kichik kvadratlar usulida, geteroskedastiklikka chidamli (HC1) standart xatolar bilan baholandi:

$$RCORP = b_0 + b_1 COV + b_2 CORPSH + b_3 CAP + b_4 \ln A + b_5 GOV + e,$$


bu yerda CAP – kapitallashuv darajasi; $\ln A$ – aktivlar logarifmi; GOV – davlat ulushi yuqori bo'lgan banklar uchun 1 ga teng bo'lgan dummy o'zgaruvchi (namunada 9 ta bank). Ekstremal qiymatlarning ta'sirini cheklash maqsadida rentabelligi -20 dan +40 foizgacha bo'lgan oraliqdan tashqaridagi kuzatuvlar chiqarib tashlandi (baholash namunasi – 96 ta kuzatuv). Hisob-kitoblar Python muhitida bajarildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlilni korporativ kreditlash hajmi va uning resurs ta'minoti dinamikasidan boshlaymiz (1-jadval; 1-rasm).

1-jadval
Korporativ kreditlash hajmi va resurs ta'minoti, 2020-2024-yillar¹

Bank	Ko'rsatkich	2020	2021	2022	2023	2024
"Asakabank"	Korporativ kreditlar, trln so'm	29,41	33,27	31,27	31,25	29,41
	Yuridik shaxs depozitlari, trln so'm	8,19	8,47	11,71	11,57	8,75
	Qoplanish koeffitsiyenti, %	27,86	25,47	37,46	37,01	29,76
"Mikrokredit-Bank"	Korporativ kreditlar, trln so'm	6,14	7,73	8,74	9,10	10,46
	Yuridik shaxs depozitlari, trln so'm	1,78	2,38	4,14	4,68	5,27
	Qoplanish koeffitsiyenti, %	29,04	30,76	47,40	51,44	50,34
"Turonbank"	Korporativ kreditlar, trln so'm	5,87	6,99	7,83	9,37	10,36
	Yuridik shaxs depozitlari, trln so'm	1,33	1,71	2,21	3,03	3,45
	Qoplanish koeffitsiyenti, %	22,72	24,52	28,22	32,38	33,26
20 ta bank	Qoplanish koeffitsiyenti, %	36,54	42,82	51,83	46,50	50,17



1-rasm. Uchta bankning korporativ kredit portfeli dinamikasi, trln so'm²

Ma'lumotlar banklarning korporativ kredit portfeli bo'yicha turli rivojlanish dinamikasini ko'rsatadi. "Asakabank"ning korporativ kredit portfeli besh yil davomida nisbatan barqaror shakllangan: 2020-yildagi 29,41 trln. so'mdan 2021-yilda 33,27 trln. so'mgacha o'sib, keyingi yillarda muayyan o'zgarishlarni boshdan kechirgan va 2024-yilda 29,41 trln. so'mni tashkil etgan. Shu davrda 20 ta bank bo'yicha korporativ kreditlar 58,5 foizga o'sganligi inobatga olinsa, "Asakabank"ning sektordagi ulushi 13,83 foizdan 8,72 foizga o'zgargan. Bu holat bankning kredit portfelini nisbatan barqaror darajada saqlagan holda, sektor miqyosidagi umumiy o'sish jarayonining yuqori sur'atlarda kechganini ko'rsatadi.

¹ Manba: Muallif ishlanmasi.

² Manba: Muallif ishlanmasi.



“Mikrokreditbank” va “Turonbank”da esa korporativ kredit portfel o‘rta ko‘rsatkichidan yuqori bo‘lgan: mos ravishda 70,3 va 76,5 foiz. Natijada ularning sektordagi ulushi ham oshgan — “Mikrokreditbank”da 2,89 foizdan 3,10 foizga, “Turonbank”da esa 2,76 foizdan 3,07 foizga yetgan. Mazkur natijalar ushbu banklarning korporativ kreditlash yo‘nalishidagi faolligi ortib borayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ularning sektordagi ulushi kelgusida o‘rta uchun qo‘shimcha imkoniyatlar mavjudligini anglatadi.


Resurs ta‘minoti bo‘yicha banklar kesimida turli dinamikalar kuzatiladi. “Mikrokreditbank”da qoplanish koeffitsiyenti besh yil davomida 29,04 foizdan 50,34 foizga oshib, sektor o‘rtacha darajasiga (50,17 foiz) yaqinlashgan va undan biroz yuqori natijani qayd etgan. Bu bankning korporativ kreditlash faoliyatini resurslar bilan ta‘minlash imkoniyatlari kengayganini ko‘rsatadi. “Turonbank”da ham mazkur ko‘rsatkich 22,72 foizdan 33,26 foizgacha o‘tib, resurs bazasining mustahkamlanish dinamikasini namoyon etgan. “Asakabank”da esa 2022–2023-yillardagi 37 foiz darajasidan 2024-yilda 29,76 foizga o‘zgarish kuzatilgan.

Umuman olganda, tahlil qilinayotgan banklarda korporativ kreditlash hajmi va uni moliyalashtirish manbalari bo‘yicha turli rivojlanish yo‘nalishlari shakllangan. Xususan, “Mikrokreditbank” va “Turonbank”da kredit portfelining yuqori o‘rta sur‘atlari, “Mikrokreditbank”da esa qoplanish koeffitsiyentining sektor o‘rtacha darajasiga yetgani banklarning korporativ segmentdagi faolligi va resurs ta‘minotini rivojlantirish borasidagi ijobiy siljishlarni ko‘rsatadi. Korporativ kreditlarni moliyalashtirishda depozitlardan tashqari jalb qilingan qarz mablag‘lari, xalqaro moliya institutlari resurslari va budjet mablag‘laridan foydalanilishi esa banklarning resurs bazasini diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini namoyon etadi.

Korporativ moliyalashtirishning samaradorlik ko‘rsatkichlari 2-jadvalda va 2-rasmda keltirilgan (2-jadval; 2-rasm).

2-jadval
Korporativ moliyalashtirish samaradorligi ko‘rsatkichlari, %³

Bank	Ko‘rsatkich	2020	2021	2022	2023	2024
“Asakabank”	Korporativ portfel rentabelligi	1,16	0,30	0,23	0,48	0,14
	ROA	0,75	0,20	0,14	0,26	0,07
	ROE	5,30	1,54	1,12	2,26	0,52
“Mikrokredit-Bank”	Korporativ portfel rentabelligi	1,63	0,50	0,24	0,45	-16,28
	ROA	0,97	0,28	0,13	0,22	-7,24
	ROE	5,75	1,65	0,58	1,04	-47,99
“Turonbank”	Korporativ portfel rentabelligi	1,96	1,45	0,68	0,62	0,22
	ROA	1,32	0,92	0,41	0,36	0,13
	ROE	9,52	5,30	2,82	3,05	1,21
20 ta bank	Korporativ portfel rentabelligi	2,48	1,44	3,34	3,82	2,61



2-rasm. Korporativ portfel rentabelligining dinamikasi, %⁴

3 Manba: Muallif ishlanmasi.

4 Manba: Muallif ishlanmasi.



Samaradorlik ko'rsatkichlari tahlilning muhim natijalaridan birini aks ettiradi. Tahlil qilinayotgan uchala bankda korporativ moliyalashtirish rentabelligi davrlar kesimida turlicha dinamikani namoyon etgan. "Asakabank"da korporativ portfel rentabelligi 1,16 foizdan 0,14 foizgacha, "Turonbank"da esa 1,96 foizdan 0,22 foizgacha o'zgargan. "Mikrokreditbank"da 2024-yilda 1 703,8 mlrd. so'm miqdoridagi moliyaviy natija qayd etilishi natijasida ko'rsatkich -16,28 foizni tashkil etgan. Ayni paytda, 20 ta bank bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 2020-yildagi 2,48 foizdan 2024-yilda 2,61 foizga oshgan. Mazkur ko'rsatkichlar korporativ moliyalashtirish samaradorligini yanada rivojlantirish va daromadlilikni oshirish uchun mavjud imkoniyatlarni ko'rsatadi.

Korporativ kredit portfeli hajmi va undan olinadigan moliyaviy natijalar o'rtasidagi nisbat ham banklar faoliyatining muhim jihatini ifodalaydi. Xususan, "Turonbank"da korporativ portfel besh yil davomida 76,5 foizga o'sgan. Shu davrda undan olinadigan foyda 115,2 mlrd. so'mdan 23,2 mlrd. so'mga o'zgargan. Mazkur holat korporativ kreditlash hajmini kengaytirish bilan bir qatorda, ushbu portfelning daromadlilikini oshirish, kredit resurslaridan foydalanish samaradorligini takomillashtirish va yuqori rentabelli yo'nalishlarni rivojlantirishga qo'shimcha e'tibor qaratish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Portfel tuzilishi va risk ko'rsatkichlari 3-jadvalda keltirilgan (3-jadval).

3-jadval
Korporativ portfelning tuzilishi va risk ko'rsatkichlari, 2024-yil⁵

Ko'rsatkich	"Asaka-Bank"	"Mikrokredit-Bank"	"Turon-Bank"	Sektor bo'yicha
Korporativ kreditlar ulushi, %	75,96	60,08	82,52	67,90
Korporativ kreditlar / aktivlar, %	50,63	44,44	58,93	47,68
Muammoli kreditlar ulushi, %	4,53	4,62	2,82	3,97
Zaxiralarning portfeldagi ulushi, %	1,56	2,82	1,21	3,46
Zaxiralarning NPL ni qoplashi, %	34,5	61,1	42,7	87,0
Xorijiy valyutadagi kreditlar ulushi, %	64,0	22,1	58,6	42,9
Kapitallashuv darajasi, %	13,80	15,08	10,91	14,54
Bitta yuridik shaxs mijozga to'g'ri keladigan kredit, mln so'm	833,7	29,8	175,3	-

Jadval banklarning biznes modellaridagi o'ziga xos jihatlarni yaqqol ko'rsatadi. "Asakabank"da bitta yuridik shaxs mijozga o'rtacha 833,7 mln. so'm kredit to'g'ri keladi. Bu bankning yirik sanoat korxonalari bilan faol hamkorlik qilishini va korporativ mijozlarga yirik hajmdagi moliyaviy resurslar yo'naltirilayotganini ko'rsatadi. "Mikrokreditbank"da ushbu ko'rsatkich 29,8 mln. so'mni tashkil etib, bankning ko'p sonli kichik mijozlarga xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan biznes modelini aks ettiradi. Bunday yondashuv kredit portfelini keng mijozlar bazasi o'rtasida taqsimlash imkonini beradi. "Turonbank" esa mazkur ko'rsatkich bo'yicha oraliq mavqeni egallaydi.

Risk ko'rsatkichlari banklarning kredit portfelini boshqarish va risklarni optimallashtirish yo'nalishlaridagi mavjud imkoniyatlarni ko'rsatadi. "Asakabank" va "Mikrokreditbank"da muammoli kreditlar ulushi 4,5 foizdan yuqori bo'lib, sektor o'rtacha ko'rsatkichi — 3,97 foizdan yuqori darajani tashkil etgan. Shu bilan birga, zaxiralarning muammoli kreditlarni qoplash darajasi "Asakabank"da 34,5 foizni, "Turonbank"da 42,7 foizni tashkil etadi, sektor bo'yicha mazkur ko'rsatkich esa 87,0 foizga teng. Ushbu natijalar kelgusida kredit portfeli sifatini yanada takomillashtirish, zaxiralarni boshqarish mexanizmlarini kuchaytirish va risklarni samarali taqsimlash bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Valyuta tarkibi ham banklarning biznes modeli va moliyalashtirish strategiyasining muhim jihatlaridan biridir. "Asakabank"da kredit portfelining 64,0 foizi, "Turonbank"da 58,6 foizi xorijiy valyutada shakllangan bo'lib, sektor bo'yicha ushbu ko'rsatkich 42,9 foizni tashkil etadi. Mazkur tarkib banklarning xalqaro moliyalashtirish manbalaridan foydalanish va xorijiy valyutadagi operatsiyalarni amalga oshirishdagi faolligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, valyuta kurslari dinamikasini hisobga olgan holda kredit portfelini diversifikatsiya qilish va valyuta risklarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish muhim yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi.

"Mikrokreditbank"da xorijiy valyutadagi kreditlarning ulushi nisbatan past — 22,1 foizni tashkil etadi. Bu bank kredit portfelining katta qismi milliy valyutada shakllanganini ko'rsatadi. 2024-yilda bankda 1 703,8 mlrd. so'm miqdoridagi moliyaviy natija qayd etilgan bo'lib, mazkur holat kredit portfeli sifati, xarajatlarni boshqarish va operatsion samaradorlikni yanada rivojlantirishga e'tibor qaratish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Samaradorlik omillarini aniqlash uchun baholangan regressiya tenglamasining natijalari 4-jadvalda keltirilgan (4-jadval).

5 Manba: Muallif ishlanmasi.



4-jadval
Korporativ portfel rentabelligi omillari regressiya tahlili natijalari⁶

O'zgaruvchi	Koeffitsiyent	Standart xato (HC1)	p-qiyamat
COV - depozitlar bilan qoplanish	0,0232	0,0104	0,025
CORPSH - korporativ kreditlar ulushi	-0,1069	0,0436	0,014
CAP - kapitallashuv darajasi	0,3193	0,2184	0,144
lnA - bank hajmi	1,3651	0,6112	0,026
GOV - davlat banki dummy o'zgaruvchisi	-9,5371	1,5963	0,000
Konstanta	-1,7748	8,3447	0,832
Kuzatuvlar soni / R-kvadrat	96	0,531	-

Baholash natijalari uchta muhim xulosani beradi. Birinchidan, korporativ kreditlarning yuridik shaxslar depozitlari bilan qoplanish koeffitsiyenti 10 foiz punktga oshsa, korporativ portfel rentabelligi 0,23 foiz punktga ortadi (5 foiz darajada ahamiyatli). Ikkinchidan, kredit portfelida korporativ segment ulushining 10 foiz punktga oshishi rentabellikni 1,07 foiz punktga pasaytiradi, ya'ni haddan tashqari konsentratsiya samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Uchinchidan, boshqa omillar nazorat qilingan holda ham davlat ulushi yuqori banklarda korporativ portfel rentabelligi o'rtacha 9,54 foiz punktga past bo'lib chiqdi va bu koeffitsiyent 1 foiz darajada ahamiyatli. Model rentabellikdagi tafovutlarning 53,1 foizini izohlaydi.

Davlat va xususiy banklar guruhlar bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar 5-jadvalda keltirilgan (5-jadval).

5-jadval
Davlat va xususiy banklar guruhlar bo'yicha ko'rsatkichlar (2020-2024-yillar o'rtachasi), %⁷

Ko'rsatkich	Davlat banklari (9 ta)	Xususiy banklar (11 ta)	Farq, foiz punkt
Korporativ portfel rentabelligi (mediana)	1,63	9,75	-8,12
Depozitlar bilan qoplanish (mediana)	32,38	101,06	-68,68
Korporativ kreditlar ulushi (mediana)	82,08	67,39	+14,69
Korporativ kreditlar / aktivlar (mediana)	58,93	37,04	+21,89
ROA (mediana)	0,92	3,87	-2,95
ROE (mediana)	6,11	23,93	-17,82

Guruhlar bo'yicha taqqoslash tahlil qilinayotgan uchta bankning holati alohida hodisa emas, balki davlat banklariga xos tizimli xususiyat ekanligini ko'rsatadi. Davlat banklarida korporativ kreditlar aktivlarning 58,93 foizini tashkil etadi (xususiy banklarda 37,04 foiz), portfeldagi korporativ ulush 82,08 foizga teng (xususiy banklarda 67,39 foiz), qoplanish koeffitsiyenti esa uch barobar past. Natijada korporativ portfel rentabelligi mediana bo'yicha 1,63 foizni tashkil etib, xususiy banklardagi 9,75 foizdan sezilarli past.

Tadqiqot natijalarini talqin qilishda ikkita cheklovni hisobga olish zarur. Birinchidan, korporativ portfel rentabelligi butun bank bo'yicha sof foydaning korporativ kreditlarga nisbati sifatida hisoblangan bo'lib, u segment darajasidagi haqiqiy foydalilikni to'liq aks ettirmaydi; segment kesimidagi daromad va xarajalar to'g'risidagi ma'lumotlar ochiq manbalarda mavjud emas. Ikkinchidan, davlat banklari kreditlash faoliyatining bir qismi ijtimoiy va tarmoq siyosati vazifalarini bajarishga qaratilgan bo'lib, uni faqat tijorat rentabelligi mezon bilan baholash to'liq bo'lmaydi; shu sababli olingan natijalar bank menejmenti samaradorligining yagona o'lchovi sifatida emas, balki mavjud biznes modelining moliyaviy natijasi sifatida talqin qilinishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon berdi.

Birinchidan, tahlil qilingan uchta bankda korporativ kreditlash hajmining dinamikasi bir xil emas: "Asakabank"ning portfeli besh yilda amalda o'zgarmagan va uning sektordagi ulushi 13,83 foizdan 8,72 foizga qisqargan, "Mikrokreditbank" va "Turonbank"da esa portfel mos ravishda 70,3 va 76,5 foizga o'sgan.

⁶ Manba: Muallif ishlanmasi.

⁷ Manba: Muallif ishlanmasi.



Ikkinchidan, hajm ko'rsatkichlarining o'sishi samaradorlikning oshishi bilan kechmagan. Korporativ portfel rentabelligi "Asakabank"da 1,16 foizdan 0,14 foizga, "Turonbank"da 1,96 foizdan 0,22 foizga tushgan, "Mikrokreditbank"da esa 2024-yilda manfiy qiymatga o'tgan. Sektor o'rtacha ko'rsatkichi (2,61 foiz) bilan taqqoslaganda tafovut bir necha barobarni tashkil etadi.

Uchinchidan, korporativ kreditlarning resurs ta'minoti yetarli emas: "Asakabank"da qoplanish koeffitsiyenti 29,76 foizni, "Turonbank"da 33,26 foizni tashkil etadi. Faqat "Mikrokreditbank" ushbu ko'rsatkich bo'yicha sektor o'rtacha darajasiga yetgan.

To'rtinchidan, risk ko'rsatkichlari salbiy tendensiyani aks ettiradi: "Asakabank" va "Mikrokreditbank"da muammoli kreditlar ulushi 4,5 foizdan yuqori, zaxiralarning muammoli kreditlarni qoplash darajasi esa mos ravishda 34,5 va 61,1 foizni tashkil etadi. "Asakabank" va "Turonbank"da kredit portfelining 58–64 foizi xorijiy valyutada shakllangan.

Beshinchidan, regressiya tahlili korporativ portfel rentabelligiga resurs bazasi ta'minoti ijobiy, portfel konsentratsiyasi salbiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi; davlat banklari uchun rentabellik boshqa omillar nazorat qilingan holda 9,54 foiz punktga past bo'lib chiqdi.

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi. Birinchidan, banklarda korporativ resurs bazasini kengaytirish bo'yicha maqsadli dastur qabul qilinishi va yuridik shaxslar depozitlarining korporativ kreditlarni qoplash koeffitsiyenti bo'yicha yillik maqsadli ko'rsatkichlar belgilanishi lozim. Ikkinchidan, kredit portfelini diversifikatsiyalash – kichik biznes va chakana segment ulushini oshirish – hisobiga korporativ konsentratsiyani sektor o'rtacha darajasiga yaqinlashtirish maqsadga muvofiq. Uchinchidan, kredit narxlarini shakllantirishda riskka mos stavka belgilash (risk-based pricing) tamoyilini joriy etish va imtiyozli kreditlash amaliyotidan yuzaga keladigan yo'qotishlarni budget kompensatsiyasi orqali qoplash mexanizmini aniq belgilash talab etiladi. To'rtinchidan, zaxiralarning muammoli kreditlarni qoplash darajasini kamida sektor o'rtacha darajasiga yetkazish va muammoli aktivlarni tiklash bo'yicha maxsus tuzilmalar faoliyatini kuchaytirish zarur. Beshinchidan, xorijiy valyutadagi kreditlar ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish va qarz oluvchilarning valyuta pozitsiyasini muntazam monitoring qilish tizimini joriy etish lozim. Oltinchidan, korporativ mijozlarga xizmat ko'rsatishni raqamlashtirish va tranzaksiya bank xizmatlarini rivojlantirish orqali foizsiz daromadlar ulushini oshirish talab etiladi.

Keyingi tadqiqotlarda segment kesimidagi daromad va xarajatlar ma'lumotlaridan foydalanish, korporativ portfelning tarmoq tuzilishini tahlil qilish va imtiyozli kreditlarning rentabellikka ta'sirini alohida baholash natijalarning amaliy qiymatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/-4811025>
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-580-son Qonuni // URL: <https://lex.uz/docs/-4581969>
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimining asosiy ko'rsatkichlari. – www.cbu.uz
4. Diamond D.W. Financial intermediation and delegated monitoring // The Review of Economic Studies. – 1984. – Vol. 51, No. 3. – P. 393–414.
5. Fama E.F. What's different about banks? // Journal of Monetary Economics. – 1985. – Vol. 15, No. 1. – P. 29–39.
6. Petersen M.A., Rajan R.G. The benefits of lending relationships: Evidence from small business data // The Journal of Finance. – 1994. – Vol. 49, No. 1. – P. 3–37.
7. Demircuc-Kunt A., Huizinga H. Bank activity and funding strategies: The impact on risk and returns // Journal of Financial Economics. – 2010. – Vol. 98, No. 3. – P. 626–650.
8. Huang R., Ratnovski L. The dark side of bank wholesale funding // Journal of Financial Intermediation. – 2011. – Vol. 20, No. 2. – P. 248–263.
9. Craig B.R., Dinger V. Deposit market competition, wholesale funding, and bank risk // Journal of Banking & Finance. – 2013. – Vol. 37, No. 9. – P. 3605–3622.
10. Winton A. Don't Put All Your Eggs in One Basket? Diversification and Specialization in Lending. Working Paper. – University of Minnesota, 1999. – 45 p.
11. Acharya V.V., Hasan I., Saunders A. Should banks be diversified? Evidence from individual bank loan portfolios // The Journal of Business. – 2006. – Vol. 79, No. 3. – P. 1355–1412.
12. La Porta R., Lopez-de-Silanes F., Shleifer A. Government ownership of banks // The Journal of Finance. – 2002. – Vol. 57, No. 1. – P. 265–301.



13. Micco A., Panizza U., Yanez M. Bank ownership and performance. Does politics matter? // Journal of Banking & Finance. – 2007. – Vol. 31, No. 1. – P. 219–241.
14. Sapienza P. The effects of government ownership on bank lending // Journal of Financial Economics. – 2004. – Vol. 72, No. 2. – P. 357–384.
15. Dinc I.S. Politicians and banks: Political influences on government-owned banks in emerging markets // Journal of Financial Economics. – 2005. – Vol. 77, No. 2. – P. 453–479.
16. Cull R., Martinez Peria M.S., Verrier J. Bank Ownership: Trends and Implications. IMF Working Paper WP/17/60. – Washington: IMF, 2017. – 43 p.
17. Berger A.N., Udell G.F. A more complete conceptual framework for SME finance // Journal of Banking & Finance. – 2006. – Vol. 30, No. 11. – P. 2945–2966.
18. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. Darslik. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2017. – 732 b.
19. “Ahbor-Reyting” reyting agentligi. Bank sektorining analitik sharhi. – № 74, № 78. – Toshkent, 2024–2025.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>